

## DAVLAT XIZMATI REGLAMENTI

### **Xizmat nomi: Haj va Umra ziyoratiga borishni tashkil etish tartibi to'g'risida axborotlar taqdim etish, ularni tashkil qilish bo'yicha fuqarolar arizalarini qabul qilish**

**Xizmat haqida:**

Haj va Umra ziyoratiga borishni tashkil etish tartibi to'g'risida axborotlar taqdim etish, ularni tashkil qilish bo'yicha fuqarolar arizalarini qabul qilish

**Xizmatning sohaga tegishliligi:**

Haj va Umra ziyorati

**Xizmatdan foydalanuvchining tolfasi:**

Jismoniy shaxslar

**Bog'lanish:**

Buxoro viloyati hokimligi

**Xizmatni ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan hujjatlar (nuxsalar soni):**

Buxoro viloyatida haj va umra ziyoratiga borish istagini bildirgan fuqarolar haj va umra tadbirlarini tashkil etish bo'yicha viloyat jamoatchilik kengashiga navbatga turish uchun ariza bilan murojaat qilishlari lozim. Ariza haj va umra tadbirlarini tashkil etish bo'yicha viloyat jamoatchilik kengashiga yozilib, unga fuqaroning pasporti nuxsasi ilova qilinadi. Arizalar belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi va murojaat qilgan fuqaroga ro'yxatga olinganligi, navbati ma'lum qilinadi.

Shuningdek, ziyoratchilar quyidagi talablarga javob berishlari kerak:

- 1) Salomatligi;
- 2) To'lov qobiliyati;
- 3) Yoshining mutanosibligi (35 yoshdan yuqori);
- 4) Navbati kelganligi;
- 5) Yashash joyi bo'yicha fuqarolar yig'inining ziyoratga ma'naviy tayyorligi haqidagi tavsifiy-tavsilyanomasi;
- 6) 46 yoshdan kichik yoshdagi ayollar uchun mahramning borligi.

Haj va Umra ziyoratiga borish bo'yicha arizalar har yilning yanvar va fevral oylarining chorshanba kunlari, Buxoro viloyatiga ajratiladigan kvotaga asosan qabul qilinadi.

Haj va Umra ziyoratiga borish uchun arizalar Buxoro shahar Xo'ja Nurobod ko'chasi 16 uyda joylashgan, Mir Arab o'rta maxsus islom bilim yurtida qabul qilinadi.

Haj ziyoratiga borish muddati yilda bir marta Zulhijja oyining 10 kuni (24 kun davomida) amalga oshiriladi. Ushbu Qamariy oyl yil hisobi har yili 10 kun oldin keladi. Joriy 2014 yilda ushbu Zulhijja oyi oktabr oyida to'g'ri kelgan.

Umra ziyoratiga borish muddati yilda ikki marta ya'ni bahor mavsumida (aprel oyi) hamda

Ramazon oyida amalga oshiriladi. Umra ziyorati 10 kun davomida amalga oshiriladi.

**Xizmatni ko'rsatishning huquqiy asosi:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgust "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 181-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida" 2015 yil 4 fevraldagi PF-4702 son farmoni) va 14.02.2015 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2203, 4702 - qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.06.2015 yildagi 171-sonli qarorlari.

**Xizmat narxi va to'lash tartibi:** Hujjatlatni qabul qilish bepul amalga oshiriladi

**Xizmatni ko'rsatish muddati:** belgilangan muddatda

**Natijani olish usullari:** Elektron shaklda va telefon orqali

**Xizmat natijasi:**

Arizalar belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi va murojaat qilgan fuqaroga ro'yxatga olinganligi, navbati ma'lum qilinadi.

**Rad etish sabablari:** Tegishli hujjatlar taqdim etilmagan va qo'yilgan talablarga javob bermagan hollarda

**Shikoyat arizasi berish tartibi:** Tegishli tartibda

## **XIZMATNI KO'RSATISH TARTIBI (WEB SAYT ORQALI ARIZANI TAQDIM ETISH)**

**VILOYAT HOKIMLIGI RASMIY WEB SAYTIDA TASHKIL ETILGAN  
INTERAKTIV XIZMAT SAHIFASIDAN ARIZA SHAKLINI YUKLAB OLISH**



**ARIZANI TO'LDIRISH, TEGISHLI HUJJATLAR BILAN BIRGALIKDA  
SKANER QILISH VA VEB SAYTDA KO'RSATILGAN ELEKTRON POCHTA  
MANZILIGA JO'NATISH**



**ELEKTRON POCHTA MANZILIGA YUBORILGAN MA'LUMOTLARNI  
KO'RIB CHIQISH VA NATIJASINI ARIZACHIGA BILDIRISH**



**ARIZA VA TEGISHLI HUJJATLARNING ASL NUSXALARINI VEB SAYTDA  
KO'RSATILGAN MANZILGA TAQDIM ETISH (YETKAZISH)**



**ARIZACHINI NAVBATGA QO'YISH VA BU HAQIDA ARIZA EGASIGA  
MA'LUMOT BERISH**